MADANIYAT VA SAN’AT SOHASINI TARAQQIY ETISHIDA INNOVATSION JARAYONLARNING TUTGAN O‘RNI

D.Bayaliev
TDIU dotsenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada milliy madaniyatni yanada rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli kamchiliklar, milliy madaniyatni yanada rivojlantirishning asosiy tamoyillari o‘rganilib, madaniyat va san’at sohasini taraqqiy etishida innovatsion jarayonlarning tutgan o‘rniga baho berilgan va madaniy loyihaning asosiy innovatsion belgilari ajratilgan holda innovatsion madaniy mahsulot va xizmatlarni rivojlantirish, madaniyat va san’at sohasini takomillashtirish va venchur kapitalini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, madaniyat va san’at, madaniy qadriyatlar, ijod erkinligi, venchur kapitali, innovatsion jarayonlar.*

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san’at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, madaniyat va san’at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish bo‘yicha kompleks yondashuvning etishmasligi, madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, aholiga madaniy xizmat ko‘rsatishda oqsoqlikka yo‘l qo‘yilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san’at maskanlarining moddiy-texnik bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etish zarur. Ayniqsa, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mavjud talab va ehtiyojlarni hisobga olmaslik, ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish, bu yo‘nalishdagi ustuvor vazifalarni to‘liq bajarish imkonini bermayapti[1].

Shu nuqtai nazardan madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida 2017 yil 31 maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Bunda quyidagi vazifalar belgilab berildi:

- madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish. Jumladan, muzeylar va teatrlar faoliyatini takomillashtirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish. Moddiy madaniy meros va arxeologiya ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

- madaniyat va san’at muassasalari, teatrlar, muzeylar, badiiy jamoalar, madaniyat va aholi dam olish maskanlari, madaniyat va istirohat bog‘lari faoliyati, moddiy-texnik bazasi holatini atroflicha o‘rganish, ularni ta’mirlash va zarur jihozlar, musiqa asboblari bilan ta’minlash, samarali ijodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. O‘zbek milliy raqs va xoreografiya san’atini yanada rivojlantirish, madaniyat va san’at rivojiga katta hissa qo‘shgan taniqli san’atkorlar, jahon miqyosidagi nufuzli ko‘rik-tanlovlarda yuqori o‘rinlarni egallagan yoshlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash;

- yoshlarni san’at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o‘zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish

[1] https://president.uz/uz/lists/view/584

orqali ularning ma’naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish. Madaniyat va istirohat bog‘lari hududida “Nuroniylar maskan”larini tashkil etib, faxriylarning madaniy dam olishlari uchun zarur sharoitlar yaratish;

- “Seni kuylaymiz, zamondosh!”, “Debyut” kabi teatr san’ati ko‘rik-festivallari samaradorligini oshirish orqali buyuk siymolar, zamonamiz qahramonlari obrazi, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini aks ettirgan, badiiy yuksak sahna asarlarini yaratish. “Bahor nafasi” xalqaro san’at festivali, “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali, “Yoshlik bahori” respublika yosh opera ijrochilari festivali singari tadbirlar, turli xalq sayllarini tashkil etib, ularga xorijiy sayyohlarni keng jalb etish;

- madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarining malakali kadrlar va mutaxassislarga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini o‘rganish, bu borada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, zamonaviy ilg‘or tajribalardan foydalanish, dunyoning mashhur musiqachilari, bastakorlari ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etish, madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarini o‘quv dasturlari va notalar, o‘quv qo‘llanma va darsliklar, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta’minlash;

- O‘zbekistonning yuksak madaniyati va san’atini xalqaro maydonda yanada keng targ‘ib etish, xalqaro ko‘rik-tanlov va festivallarda mamlakatimiz vakillarining ishtirokini kuchaytirish, Samarqand shahrida o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali nufuzini yanada oshirish, boshqa turli tadbirlarda chet ellik madaniyat va san’at namoyandalari keng qatnashishlarini ta’minlash, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish.

2023 yil 22 dekabr kuni davlatimiz rahbari raisligida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Tasviriy va amaliy san’at sohasini yanada rivojlantirish uchun alohida dastur qabul qilinadi.

Xattotlik va miniatyura san’ati ta’limini amaliyot bilan bog‘lash maqsadida milliy usulda qog‘oz tayyorlash bo‘yicha o‘quv ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etiladi.

– Yana bir muhim masala – *madaniyat va san’at sohasida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha jiddiy o‘zgarish qilishimiz shart*, – dedi Prezident Sh.Mirziyoev.

Mutasaddilarga musiqa va san’at maktablari muallimlarining oyligini oshirish, ushbu maktablarning kommunal xarajatlarini byudjetdan qoplash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish topshirildi.

Shuningdek, madaniyat va san’at, kutubxona va muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarning oyliklari 2024 yil 1 apreldan 20 foizga, 2025 yil 1 yanvardan yana 15 foizgacha bo‘lgan miqdorda oshiriladi[1].

Shuningdek, nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlari kengaytirilishi, moddiy-texnik bazasi mustahkamlanishi zarurligi qayd etilgan. Shu maqsadda ushbu korxonalar 5 yilga soliqlardan ozod qilinadi**.** Shuningdek, ularga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Prezident tarjimonlikdek mas’uliyatli mehnatni munosib rag‘batlantirish uchun ulug‘ shoir va tarjimon Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etishni taklif etdi.

Hududlardagi bolalar kutubxonalari bosqichma-bosqich bolajonlarning sevimli maskaniga aylantiriladi.

Xattotlik va miniatyura san’ati ta’limini amaliyot bilan bog‘lash maqsadida milliy usulda qog‘oz tayyorlash bo‘yicha o‘quv ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etiladi.

“Yana bir muhim masala – madaniyat va san’at sohasida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha jiddiy o‘zgarish qilishimiz shart”, dedi Prezident[2].

[1] https://uza.uz/uz/posts/prezident-madaniyat-va-sanat-sohasida-talim-sifatini-oshirish-boyicha-zhiddiy-ozgarish-qilish-shart_550939

[2]https://uzreport.news/society/madaniyat-va-sanat-kutubhona-va-muzeylar-so-asida-faoliyat-olib-borayotgan-hodimlarning-oy

Mutasaddilarga musiqa va san’at maktablari muallimlarining oyligini oshirish, ushbu maktablarning kommunal xarajatlarini byudjetdan qoplash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish topshirildi.

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Prezident “O‘zbek tili va adabiyoti” fani o‘qituvchilariga ham xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan boshqa fan o‘qituvchilaridan kam bo‘lmagan miqdorda qo‘shimcha haq to‘lanishi adolatdan bo‘lishini ta’kidladi.

Shu maqsadda milliy sertifikatga ega bo‘lgan “O‘zbek tili va adabiyoti” fani o‘qituvchilariga kelgusi o‘quv yilidan boshlab 50 foiz ustama to‘lanadi.

O‘zbek tili bo‘yicha xalqaro fan olimpiadasi o‘tkazilishi, g‘olib va sovrindorlari pul mukofoti bilan taqdirlanishi hamda oliygohlarga o‘zbek tili filologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinishi belgilandi.

Prezident 9 ta yo‘nalishda o‘z fikrlarini bildirib, muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Avvalo, ma’naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyani rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur-hujjat ishlab chiqish lozimligi ta’kidlandi. Ba’zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi qo‘yish, dunyoviy qadriyatlarni harom deb bilish holatlari afsus bilan qayd etildi. Prezident bu o‘rinda Ibrat domlaning «Ulamo g‘ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur», degan hikmatli so‘zlarini yodga oldi. Ziyolilar, nuroniylar, haj va umraga borib kelgan yurtdoshlarimiz ma’naviyat targ‘ibotchisi bo‘lishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerakligi aytildi.

Ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibor izchil davom ettiriladi. Bu borada ham tenglik ta’minlanishi, xususan, qiz bolalarning o‘qishi va kasb-hunar egallashi jamiyat rivojida muhim ekani alohida ta’kidlandi.

Ikkinchidan, madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarda hokimlarning mas’uliyati oshiriladi. Tuman va shaharlarda Ma’naviyat va ma’rifat maskanlari ishga tushiriladi. Shu maqsadda, hududlardagi 4 ta sektorga qo‘shimcha ravishda ma’naviyat sektori tashkil etilishi ma’lum qilindi. Ular joylardagi Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Uchinchidan, teatr san’atini rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi. Unda eng yaxshi piesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofot ta’sis etish kabilar nazarda tutiladi. Korxona va muassasalarda oyning bir kuni «Teatr kuni» deb belgilanib, xodimlarning teatrlarga borishi yo‘lga qo‘yiladi.

To‘rtinchidan, kelgusi yildan har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va to‘garak xonalari bo‘lgan bittadan madaniyat markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Joylardagi 600 dan ziyod badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo‘yicha dastur qabul qilinib, bunga 100 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Beshinchidan, maqom va baxshichilik san’atini ilmiy asosda o‘rganish va rivojlantirish kuchaytiriladi. Maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas va adras, kulolchilik va zargarlik kabi an’analarni davom ettiradigan maktablar yaratiladi.

Oltinchidan, musiqa va raqs san’ati rivoji qo‘llab-quvvatlanadi. Jumladan, «Bahor» raqs ansambli ilgari Filarmoniya joylashgan mashhur san’at saroyida faoliyat yuritadi. Taniqli ashula va raqs ansambllarining xorijga gastrol safarlari ko‘paytiriladi. Musiqa va raqs san’ati masalalarini ilmiy o‘rganish, sohada ilmiy kadrlarni ko‘paytirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar uchun grantlar joriy qilinadi. Shuningdek, Toshkent davlat sirki binosi ta’mirdan chiqariladi.

Yettinchidan, xalqaro maydonda o‘zbek madaniy diplomatiyasi kengaytiriladi. Kelgusi yili Toshkentda jahon kreativ iqtisodiyotiga bag‘ishlangan konferensiya, Nukusda esa «Orol madaniyati» xalqaro ilmiy anjumani o‘tkaziladi. Muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha yetti yillik dastur qabul qilinadi. Tarix muzeyi hamda San’at muzeyining yangi binolari barpo etiladi. Temuriylar tarixi hamda Tabiat muzeylarining ekspozitsiyasi yangilanadi. Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi kapital ta’mirlanadi.

Bundan tashqari, muzeylarimizda, xususan, Islom sivilizasiyasi markazida Birinchi va Ikkinchi Renessans, davlatchilik tarixi va buyuk allomalar faoliyati bo‘yicha yangi ekspozitsiyalar

tashkil qilinadi. Fransiya bilan hamkorlikda Milliy restavrasiya markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Muqaddas kitob – Usmon Qur’oni sahifalari konservasiya qilinadi.

Yurtimizning ko‘hna tarixiga bag‘ishlangan 18 ta arxeologiya yodgorligi ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantiriladi. Samarqandda Sohibqiron Amir Temur bog‘lari qayta tiklanadi, «Buyuk ipak yo‘li» muzeyi barpo etilib, Bibixonim majmuasi restavrasiya qilinadi.

Sakkizinchidan, kino sohasi rivojlantiriladi. Bu borada «Tirik tarix» seriyasida Vatanimizning shonli o‘tmishiga bag‘ishlangan filmlar yaratish dasturi ishlab chiqiladi. Bunga xorijiy ijodkorlar, kinokompaniyalar hamda investorlar ham jalb etiladi. Shuningdek, bolalar uchun buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘li haqida ko‘p qismli animasion filmlar yaratish zarurligi ta’kidlandi.

Kinoni iqtisodiyot bilan uyg‘un rivojlantirish maqsadida Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlarida «erkin iqtisodiy kinohududlar» barpo etish vazifasi qo‘yildi.

Milliy seriallar bo‘yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish, ularni g‘oyaviy-badiiy va texnik jihatdan jozibali darajaga yetkazish zarurligi ta’kidlandi. Buning uchun IT-park kabi erkin iqtisodiy zona – «Cinema park» tashkil qilish tashabbusi ilgari surildi.

To‘qqizinchidan, tasviriy va amaliy san’at sohasini rivojlantirish bo‘yicha dastur qabul qilinadi. Jumladan, Markaziy ko‘rgazmalar zali rekonstruksiya qilinib, jihozlanadi. Badiiy fond hududida zamonaviy galereya binosi quriladi hamda 40 ta ijodiy ustaxonadan iborat Yosh rassomlar markazi tashkil etiladi. Xattotlik va miniatyura san’ati ta’limini amaliyot bilan bog‘lash maqsadida milliy usulda qog‘oz tayyorlash ustaxonasi tashkil etiladi.

Boshqa tillarda ta’lim olgan hamyurtlarimizni davlat tilini o‘rganishga rag‘batlantirish choralari ko‘riladi. Boshqa tillarga ixtisoslashgan maktablarda davlat tilini o‘qitish soatlari ko‘paytiriladi. O‘zbek tili bo‘yicha xalqaro fan olimpiadasi tashkil etiladi.

Jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish qo‘llab-quvvatlanadi. Ijodiy buyurtmalar, muallif va tarjimonlarga qalam haqi ko‘paytiriladi. Nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 5 yilga soliqlardan ozod qilinadi.

Prezident tarjima san’atining ahamiyatiga to‘xtalib, bunday mehnatni munosib rag‘batlantirish uchun Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etish tashabbusini ilgari surdi.

Internet adabiyotini rivojlantirish ham muhimligi ta’kidlanib, shu maqsadda adabiyot, kino, tarix, san’at, folklor namunalarini qamrab olgan «O‘zbek madaniyati» portalini yaratish vazifasi qo‘yildi.

Tasviriy va amaliy san’at sohasini yanada rivojlantirish uchun alohida dastur qabul qilinadi.

Xattotlik va miniatyura san’ati ta’limini amaliyot bilan bog‘lash maqsadida milliy usulda qog‘oz tayyorlash bo‘yicha o‘quv ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etiladi.

Mutasaddilarga musiqa va san’at maktablari muallimlarining oyligini oshirish, ushbu maktablarning kommunal xarajatlarini byudjetdan qoplash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish topshirildi.

Umuman olganda, madaniyat va san’at, kutubxona va muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarning oyliklari 2024 yil 1 apreldan 20 foizga, 2025 yil 1 yanvardan yana 15 foizgacha bo‘lgan miqdorda oshiriladi[1].

Umuman olganda, biz intellekt, ijodiy munosabatlar, turli xil san’at turlarining integrasilashuvi, jamiyatdagi mehnat shakllarini o‘zgartirish, madaniyat holatini baholash va loyihalashga e’tiborni qaratish, menejmentni o‘zgartirish kabilarni istiqbolga yetaklaydi, deb ayta olamiz.

Darhaqiqat, innovatsiyalar sharoitida biz aholining madaniy muassasalardan (bu muassasalar prinsipial ravishda ishlashiga qo‘shimcha ravishda) ham moddiytexnologik, ham ijodiy (kasbiy va texnologik) o‘zgarishlar kutayotganini ta’kidlab o‘tishimiz mumkin. Ijodiy o‘zgarishlarga turli toifadagi fuqarolar uchun ularning zamonaviy ehtiyojlariga mos keladigan turli xil xizmatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga ijodiy yondoshishni kiritish mumkin.

[1] https://uza.uz/uz/posts/prezident-madaniyat-va-sanat-sohasida-talim-sifatini-oshirish-boyicha-zhiddiy-ozgarish-qilish-shart_550939

Albatta, madaniy “xizmat”ning sust rivojlanishi, hattoki avvalgilaridan mahrum bo‘lish (masalan, filmlarni tarqatish) sharoitida rivojlanish darajasi past bo‘lgan shaharlar, qishloqlar aholisining zamonaviy madaniy xizmatlarga talabi hali hamon juda past darajadadir. Biroq, innovatsiyalarning asosiy xususiyatlarini - bu dolzarblik, ijodkorlik va zamonaviy texnik vositalardan foydalanishga talabni - bu hududdagi madaniy talablarda ham ko‘rish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohani umumiy modernizatsiya qilish nafaqat madaniyatning yangi iste’molchilarini, balki uni yaratuvchilarni ham shakllantiradi. Yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish va madaniy mahsulotlarni targ‘ib qilish ijodkorlar va iste’molchilarni, xususan, ijodiy sohalar doirasida birlashtiradi. Iste’molchilarni ijodiy jarayonga jalb qilish orqali ijodkorlar ularni asarlar yaratilishidagi quvonchlariga qo‘shilishiga imkon beradi va ular, o‘z navbatida, “o‘zlarining” tomoshabinlari va tinglovchilarini yaxshiroq anglay boshlaydilar.

Multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda badiiy festivallar, kontsertlar va ko‘rgazmalar, muzey va teatr jamoatchiligini birlashtirgan loyihalar kabi yangi ijod turlari nafaqat yangi ijodiy yondashuvlarni, balki axborot texnologiyalari yangiliklaridan va yangi boshqaruv ko‘nikmalaridan foydalanishni talab qiladi. Bu mavjud modernizatsiya qilish va innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish byudjet sohasini isloh qilish, madaniyatning institutsional sohasini o‘zgartirish, tashkilotlar boshqaruvining rolini kuchaytirish va innovatsion yondashuvlardan foydalangan holda ijtimoiy-madaniy sohada boshqaruv amaliyotining tarqalishi bilan tavsiflangan yangi sharoitda madaniyat sohasidagi boshqaruv samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion madaniy mahsulot va xizmatlarni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlar iste’molchisini shakllantirish zarur, buning uchun madaniyat va san’at sohasini takomillashtirish va venchur kapitalini rivojlantirish; fan, ixtirolar va texnologiyalari transferini rivojlantirish; sohada innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish; raqobatni rivojlantirish va ma’muriy to‘siqlarni qisqartirish; infratuzilma va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https://president.uz/uz/lists/view/584
2.https://uza.uz/uz/posts/prezident-madaniyat-va-sanat-sohasida-talim-sifatini-oshirish-boyicha-zhiddiy-ozgarish-qilish-shart_550939
3.https://uzreport.news/society/madaniyat-va-sanat-kutubhona-va-muzeylar-so-asida-faoliyat-olib-borayotgan-hodimlarning-oy
4.https://uza.uz/uz/posts/prezident-madaniyat-va-sanat-sohasida-talim-sifatini-oshirish-boyicha-zhiddiy-ozgarish-qilish-shart_550939
5.Sh.M.Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. «O‘zbekiston» nashriyoti, 2021. 464-bet.
6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26 may 2020 yilda imzolagan “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz